



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 9, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 9, ISSUE 2



ТОШКЕНТ-2026

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат техника университети

**Халикова Рахбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат университети

**Махкамova Надира Рахмановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодири Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ермегов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Андижон давлат университети

**Рашидов Ойбек Расулович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Озарбайжон давлат университети

**Саипова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Таниева Гулдона Мамановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайдон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Курбанов Бахтияр Журабаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Наманган давлат университети

**Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Баҳадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Юсупов Аҳмеджон Шоназарович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Urganch davlat universiteti

**Тиллажаева Хуршида Джумаваевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Тошкент давлат техника университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**

**Исоқов Бахтиёр Робидинович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Наманган давлат университети

**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети

**Турсунова Юлдуз Бобоқуловна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Азаматова Гулмира Байирбековна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Jizzax davlat pedagogika universiteti

**Каримжонов Жасурбек Мухторжонович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Ўзбекистон Миллий университети

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


<b>1. Ольга Кобзева</b> БАРОНЫ РИХТГОФЕНЫ: ИСТОРИКИ И ГЕОГРАФЫ.....	5
<b>2. Oybek Rashidov</b> O‘ZBEKISTON SSRNING TASHKIL TOPISHI.....	15
<b>3. Sevara Pulatova</b> O‘ZBEKISTON MUZEYLARI INNOVATSION RIVOJLANISH YO‘LIDA.....	21
<b>4. Ойдин Маннопова</b> ПЕРИОД СТАБИЛИЗАЦИИ И РОСТА ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО И ИНВЕСТИЦИОННОГО СОТРУДНИЧЕСТВА МЕЖДУ РЕСПУБЛИКОЙ УЗБЕКИСТАН И РОССИЙСКОЙ ФЕДЕРАЦИЕЙ (2000 – 2008 гг.).....	27
<b>5. Faxriddin Yormatov</b> ALISHER NAVOIYNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O‘RNI VA DIPLOMATIK QARASHLARI.....	32
<b>6. Feruza Atajanova</b> OLIIY TA‘LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR MOHIYATI: YUTUQLAR, KAMCHILIKLAR VA NATIJALAR.....	37
<b>7. Ikrom Djurayev</b> MARKAZIY OSIYODA QADIMGI KO‘CHMANCHI VA O‘TROQ AHOLINING O‘ZARO MUNOSABATLARI.....	42
<b>8. Muslima Bazarova</b> O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLARI TADBIRKORLIGINI MOLIYAVIY QO‘LLAB- QUVVATLASHDA BANKLARNING O‘RNI.....	49
<b>9. Diyora Chorshanbiyeva</b> YOSHLARGA OID DAVLAT DASTURLARI VA ULARNING NATIJAVIY TAHLILI.....	56
<b>10. Муродилла Хайдаров</b> ФРЕДЕРИК СТАПП [1] МАРКАЗИЙ ОСИЁНИ ҚАЙТА КАШФ ЭТИБ... [2].....	62
<b>11. Xamro Rahmonov</b> O‘ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKNI TA‘MINLASHGA OID DAVLAT SIYOSATI.....	69
<b>12. Umrbek Salayev</b> QADIMGI XORAZM: TARIXIY MANBALAR VA ILMIY TALQINLAR TAHLILI.....	75



**Xamro Xazratovich Raxmonov,**  
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
katta ilmiy xodim.  
Email: raxmonov.xamro@bk.ru

## O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASHGA OID DAVLAT SIYOSATI

**For citation:** Khamro Kh. Rakhmonov. STATE POLICY ON ENSURING GENDER EQUALITY IN UZBEKISTAN. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 2.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18700983>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida gender tenglikni ta'minlash hamda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan davlat siyosatining mazmun-mohiyati, huquqiy asoslari va amaliy natijalari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida so'nggi yillarda mamlakatda gender tenglikni ta'minlash borasida amalga oshirilgan institutsional islohotlar, qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari ilmiy manbalar hamda rasmiy statistik ma'lumotlar asosida o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** xotin-qizlar, Oliy Majlis, parlament, Senat, senator, saylovlar, BMT, gender tenglik, davlat siyosati, ijtimoiy-siyosiy faollik, ayollar huquqlari, gender siyosati, teng imkoniyatlar, institutsional islohotlar, qiyosiy tahlil, xalqaro tajriba.

---

**Хамро Хазратович Рахмонов,**  
доктор философии по историческим наукам (PhD),  
старший научный сотрудник.  
Email: raxmonov.xamro@bk.ru

## ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА ПО ОБЕСПЕЧЕНИЮ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

### АННОТАЦИЯ

В данной научной статье комплексно анализируются содержание и сущность государственной политики Республики Узбекистан, направленной на обеспечение гендерного равенства и повышение социально-политической активности женщин, а также её правовые основы и практические результаты. В ходе исследования на основе научных источников и официальных статистических данных изучены институциональные реформы, реализованные в последние годы в стране в сфере обеспечения гендерного равенства, принятые нормативно-правовые акты, государственные программы.

**Ключевые слова:** Олий Мажлис, парламент, Сенат, senator, выборы, ООН, гендерное равенство, государственная политика, женщины, социально-политическая

активность, права женщин, гендерная политика, равные возможности, институциональные реформы, сравнительный анализ, международный опыт.

**Khamro Kh. Rakhmonov**

Doctor of Philosophy in Historical Sciences (PhD),

Senior Research Fellow.

**Email:** raxmonov.xamro@bk.ru

## STATE POLICY ON ENSURING GENDER EQUALITY IN UZBEKISTAN

### ABSTRACT

This scientific article provides a comprehensive analysis of the substance, legal foundations, and practical outcomes of the state policy of the Republic of Uzbekistan aimed at ensuring gender equality and increasing the socio-political participation of women. The study examines institutional reforms, adopted legal and regulatory acts, state programs, and strategies implemented in recent years to promote gender equality, based on academic sources and official statistical data.

**Index Terms:** Gender, women, Oliy Majlis, Parliament, Senate, senator, elections, United Nations, gender equality, state policy, women's rights, socio-political participation, gender policy, equal opportunities, institutional reforms, comparative analysis, international experience.

**1. Dolzarbligi.** Ma'lumki, so'ngi yillarda O'zbekistonda barcha sohalarda tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlarning mazmun mohiyati eng avvalo inson huquq va erkinliklari, uning qadri, xalq manfaatiga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishida gender masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasida gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilib, "Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to'g'risida"gi, "Onalikni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi xalqaro hujjatlarni imzolagani, O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan davrida barqaror rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan Milliy strategiyasida alohida vazifa sifatida belgilangani va davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani mazkur masalaning bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etishini anglatadi.

**2. Metodlar:** Mazkur maqolada mustaqillik yillarida O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash hamda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga oid davlat siyosati, parlamentda bo'lib o'tgan saylovlarda xotin-qizlarning ishtiroki, erishilgan yutuqlar bilan birga mavjud kamchiliklar yillar kesimida tegishli adabiyotlar, statistik ma'lumotlar asosida tahlil etildi. Respublikada viloyatlar kesimida ayollarning saylovlarda ishtiroki va ayrim davlatlar parlamentida xotin-qizlarning ulushi qiyosiy o'rganildi. Jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida xotin-qizlarning o'rni, respublikada so'ngi yillarda gender tenglikni ta'minlash borasida olib borilayotgan amaliy ishlar, ijobiy natijalar qiyosiy, muammoviy-xronologik hamda tizimli tahlil usullaridan foydalangan holda tahlil etildi.

Masalaga oid adabiyotlar, statistik ma'lumotlar, maqolalar o'rganilib, mamlakatda gender tenglik masalalarida mavjud kamchiliklar taxlil qilinib, xulosalar chiqarildi.

**3. Tadqiqot natijalari.** O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, xotin-qizlar huquq va manfaatlarini himoya qilishning normativ-huquqiy asoslarini yaratishga kirishildi. 1995-yil 2-mart kuni Respublika Prezidentining "O'zbekiston respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni e'lon qilindi. Mazkur farmon xotin-qizlar qo'mitalari tizimi rivojini yangi bosqichga ko'tardi hamda mamlakatda ayollar hayotining yanada yaxshilanishiga ma'lum ma'noda sharoitlar yaratdi.

Bundan tashqari mazkur masalaga oid xalqaro tajribalar, huquqiy hujjatlar o'rganildi. Jumladan, O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchilardan bo'lib 1995-yil 6-mayda Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Xotin-qizlarning huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga

barham berish to'g'risida"gi (Nyu-York, 1979-yil 18-dekabr) [1] va 1997-yil 30-avgustda "Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyaga (Nyu-York, 1952-yil 20-dekabr) qo'shildi.

Shuningdek, respublika xotin-qizlari vakllari 1995-yil 6-mayda "Tinchlik, taraqqiyot va tenglik" shiori ostida o'tkazilgan Butunjahon ayollarning IV Konferensiyasida ishtirok etib, O'zbekiston xotin-qizlar ahvolini yaxshilashga qaratilgan Pekin deklaratsiyasiga qo'shildi [2,77-78-b.] Mazkur konferensiyada dunyoning 189 mamlakatidan 47 ming ayollar ishtirok etib, xotin-qizlarning ijtimoiy mavqeini oshirishga qaratilgan bir qancha hujjatlar imzolangan hamda aniq maqsadlar belgilab olingan. Ana shu maqsadlardan biri Pekin deklaratsiyasiga ko'ra qatnashuvchi mamlakatlar uchun xotin-qizlar har bir tashkilotda xodimlar tarkibining 30%ni tashkil etishi kerakligi bo'yicha xalqaro standartga amal qilishi masalasi belgilangan. Gender tenglik borasida olib borilgan islohotlar ijobiy natijalari bo'yicha O'zbekiston BMTning ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish konvensiyasi qo'mitasiga mazkur konvensiyaning bajarilishi yuzasidan 2001-, 2005-, 2008-, 2011-yillarda to'rtta milliy ma'ruzasini taqdim etdi va ular qo'mita tomonidan yuksak e'tirof etildi [3, 91-93-b.].

Bugungi kunda jamiyat hayotining barcha sohalarida ayollarning samarali mehnat qilib kelayotgani e'tirofga loyiq, ammo o'tgan yillar davomida respublika xotin-qizlarining mamlakat siyosiy jarayonlarida va davlat boshqaruvidagi ishtirokini qoniqarli baholab bo'lmaydi. Xususan, 1994-yilgi Oliy Majlisga bo'lib o'tgan saylovlarda 634 nafar deputatlikka nomzodlardan 52 nafari ayol bo'lsa, ular orasidan deputat etib saylanganlar 15 nafarni tashkil etgan. 1999-yilgi saylovlarda ham vaziyat deyarli o'zgarishsiz qoldi. Masalan, 1242 nomzoddan 171 nafarini xotin-qizlar tashkil etgan bo'lsa, ulardan 18 nafari deputat etib saylangan xalos. Bu holat viloyatlarda yanada sust ekanligini ko'rish mumkin. Jumladan, mazkur davrda Toshkent viloyatidan Oliy Majlisga deputatlikka da'vogar 24 nafar ayolning atigi 4 nafari deputat bo'lgan bo'lsa, ayrim viloyatlardan Oliy Majlisga deputatlik uchun ko'rsatilgan ayol nomzodlardan birortasi yetarlicha ovozga ega bo'lmagan. Masalan, Andijonda 16 ta, Namanganda 12 ta, Buxoroda 11 ta, Sirdaryoda 5 ta ayol nomzodlarning birortasi saylanmagan. Tadqiqotchilar fikricha xotin-qizlarning ko'p hollarda saylov qonunchiligi, uning tartib-qoidalaridan bexabar bo'lganligi, targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish, saylovoldi dasturlarini aholiga tushuntirish, jamoa bilan ishlash va nutq madaniyatiga yetarlicha e'tibor bermayotganligi uchun ham muvaffaqiyatga erisha olmagan [4, 47-b.] deb hisoblamogda. 1994- hamda 1999-yillarda Oliy Majlisga bo'lib o'tgan saylovlarda deputatlikka nomzodini qo'ygan xotin-qizlar uchun muvaffaqiyatli yakunlanmadi. Shu sababdan keyingi saylovlarda xotin-qizlarni faol ishtirokini ta'minlash, tashabbuslarini qo'llab quvvatlash, jamiyat siyosiy hayotida ayollarning rolini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 27-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida"gi (yangi tahriri) Qonunning 22-moddasi: "Ayollarning miqdori siyosiy partiyalardan deputatlikka nomzodlar umumiy sonining 30%dan kam bo'lmasligi lozim", – deb ko'rsatildi [5, 56-b.].

Davlat va jamiyat siyosiy hayotida xotin-qizlarga munosabatning o'zgarishi natijasida ayollarning ham ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va davlat boshqaruvidagi ishtiroki, faollashuvi nisbatan o'sib bordi. Xususan, hukumatning oliy organlarida ayollar salmog'i 2000-yilda 8,2%, 2002 yilda 13,7%, 2005-yildan boshlab esa Oliy Majlis Qonunchilik palatasida 18%, Senatda 15%ni, 2015-yil holatiga ko'ra Oliy Majlis Qonunchilik palatasida 16%, Senatda 15%ni tashkil etdi. Xotin-qizlarning mamlakat siyosiy hayotida hamda davlat boshqaruvidagi ishtiroki dastlabki saylovlarga nisbatan ortgan bo'lsa-da, bu ko'rsatgichlar xalqaro belgilangan mezonlarga nisbatan qoniqarsiz natija hisoblanadi. Shu ma'noda, ayollarning siyosiy faolligini oshirish ma'lum vaqt talab etadigan jarayondir. Masalan, jahonda demokratiya rivojlangan davlat hisoblangan AQSHda 1776-yil mustaqillik qo'lga kiritilgan bo'lsa ham 1926-yilga kelibgina ayollar saylash va saylanish huquqiga ega bo'lishgan. Yoki Rossiya Federatsiyasi Federal Kengashining 178 a'zosidan faqatgina 2 tasini, davlat Dumasi a'zolarining esa 10,2%ini ayollar tashkil qiladi [6, 21-b.]. Jahonda parlamentda ayollar salmog'i yuqoriligi bo'yicha yetakchi davlat Ruanda 61,3%, keyingi o'rinlarni esa Boliviya 53,1%, Kuba 48,9%, Islandiya 47,6%, Nikaragua 45,7% kabi mamlakatlar egallagan. Xotin-qizlarni mamlakat parlamenti va siyosiy jarayonlarda ishtiroki bo'yicha Janubiy Amerika mamlakatlari yetakchilik qilmoqda.

Bu masala qo'yidagi jadvallarda davlatlar kesimida aniq raqamlarda keltirilgan. (1-2-jadvallarga qarang)

Jadval №1

№	Davlat nomi	Parlamentda ayollar salmog'i
1.	Xitoy	23,7 %
2.	AQSH	19,1 %
3.	Hindiston	11,8 %
4.	Brazilya	10,7 %
5.	Rossiya	10,2%

Jadval №2

**Parlamentda ayollar salmog'i yuqori bo'lgan mamlakatlar.**

№	Davlat nomi	Parlamentda ayollar salmog'i
1.	Ruanda	61,3 %
2.	Boliviya	53,1 %
3.	Kuba	48,9 %
4.	Islandiya	47,6 %
5.	Nikaragua	45,7 %

**Manba:** Inter-Parliamentary Union - IPU [www.ipu.org/wmn-e/classif.htm](http://www.ipu.org/wmn-e/classif.htm) (2023)

Ko'rinib turibdi-ki, hozirgacha dunyoning rivojlangan AQSH, Xitoy, Rossiya singari mamlakatlari parlamentlarida ham xotin-qizlar ulushi Pekin deklaratsiyasida belgilangan 30% ko'rsatgichga yetmagan.

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki 25 yilida respublika xotin-qizlarni davlat boshqaruvidagi faoliyatini tahliliga ko'ra bu borada ayollarning ulushini ijobiy baholay olmaymiz. Jumladan, Vazirlar Mahkamasida 6,5%, adliya sohasida 13,2%, viloyat hokimlari 0%, mahalliy hokimiyatlarda 19%, xalq deputatlari kengashlarida 16,6%, iqtisodiyot boshqaruvi sektorida 26,8%, mahalla raislarining 11,2%ini ayollar ulushi tashkil etgan edi [3, 91-93-b.]. Mazkur ko'rsatgichlarni respublika aholisi tarkibidagi ayollarning umumiy soniga taqqoslaganda xotin-qizlarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ishtiroki qoniqarsiz ekanligi ma'lum bo'ladi. O'zbekistonda aholining yarmini xotin-qizlar tashkil etgan holda siyosiy partiyalar yetakchilari orasida hanuzgacha birorta ayol kishi yo'qligi xotin-qizlarni liderlikka, aholi bilan muloqot qilishga, muhim qarorlar qabul qilishga tayyorlash hamda boshqaruv va siyosiy sohaga oid bilimlarini oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

2018-yil holatiga ko'ra, mamlakatda turli soha va tarmoqlarda mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarning 45 foizini xotin-qizlar tashkil etgan. Ulardan 17 nafari senator, 16 nafari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati bo'lib, 1075 nafari esa xalq deputatlari mahalliy kengashlari tarkibida faoliyat yuritgan [7]. Ayni paytda respublikamiz xotin-qizlarining qariyb 80 foizi asosan ikki ijtimoiy soha – ta'lim va sog'liqni saqlashda faoliyat yuritadi [8]. Xususan, xalq ta'limi tizimi xodimlarining 71%, sog'liqni saqlash sohasi xodimlarining 62% xotin-qizlardir. Endi davlat va jamiyat boshqaruvidagi ahamiyatga ega lavozimlarda, mamlakat parlamentida ham xotin-qizlarning sonini ko'paytirish masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim.

So'nggi yillarda xotin-qizlarni davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirokini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 21-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yigirmanchi yalpi majlisida so'zlagan nutqida bildirilgan taklifiga [9] binoan Senatda yangi – Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha qo'mita tuzildi. Shuningdek, Oliy Majlis Senati raisligiga mustaqil O'zbekiston tarixida ilk bor Xotin-qizlar qo'mitasi raisi lavozimida faoliyat yuritib kelayotgan Tanzila Norboyevaning nomzodi ilgari surildi. Ushbu taklif deputatlar tomonidan bir ovozdan tasdiqlanishi mamlakatda gender tengligini ta'minlash yo'lidagi muhim siyosiy qadam bo'ldi. Senat raisligiga ayol kishining saylanishi orqali O'zbekiston palata rahbari ayol kishi bo'lgan sanoqli 56 ta davlat safiga kirdi.

Ta'kidlash kerak-ki, Shavkat Mirziyoyev boshqaruvi davridan O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida, davlat boshqaruvida xotin-qizlar ishtiroki yildan yilga ortib bormoqda. Respublika rahbari xotin-qizlar faoliyati masalalari borasida fikr yuritib, asosan jamiyat ijtimoiy-ma'naviy hayotida faol ishtirok etayotganini, ammo siyosiy jarayonlarda, davlat boshqaruvida xotin-qizlar faoliyati qoniqarli emasligini tanqidiy tahlil qilib: "... hozirgi vaqtda mamlakatimizda 514 nafar fan doktori, 6 nafar akademik, 15 nafar O'zbekiston Qahramoni, 17 nafar senator, 15 nafar Qonunchilik palatasi deputati, mahalliy kengashlar deputatlarining 23 foizdan ziyodi, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at sohalarida mehnat qilayotganlarning 72 foizi xotin-qizlar" [10, 343-345-b.] tashkil etishini ta'kidlab, xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish muhim ekanligini qayd etib o'tdi.

2019-yilda "Yangi O'zbekiston – yangi saylovlar" shiori ostida Oliy Majlisga bo'lib o'tgan saylovlar xalqaro demokratik tamoyillar asosida o'tkazilib, bu saylov so'nggi 28 yil ichida xotin-qizlarning parlament tarixida ko'p o'rin egallaganligi bilan muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Jumladan, 2019-yilgi saylov natijalariga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasiga saylangan 150 nafar deputatlarning 48 nafari yoki 32%ini, 100 nafar senatorlarning 23 nafarini xotin-qizlar tashkil etadi [11].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar yildan yilga xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi ortib, parlament tarkibida ham ayollar ulushi sezilarli oshib borayotganligini ko'rsatmoqda. So'nggi yillarda davlat tomonidan xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli islohotlar, shuningdek, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga oid 80 ga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligi [12, 4-b.] ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'lumki, 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi tasdiqlanib, gender tenglikka erishish bo'yicha 61 ta maqsadli indikator belgilab olindi. Turli yo'nalishlarda xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish maqsadi qo'yilgan. Xususan, belgilangan yilga qadar siyosiy partiyalarda xotin-qizlarning ulushini 46%dan 50%ga, vazir va vazirga tenglashtirilgan lavozimlarda 5,7 nafardan 15 nafarga, boshqaruv lavozimlarida 28,2%dan 30%ga, sudyalor orasidagi ulushini 13,8%dan 30%ga, mahalliy ijroiya hokimiyati organlarida rahbarlik (hokimlar) lavozimidagi ulushini 5 nafardan 20 nafarga yetkazish kabi ko'plab masalalar belgilab olingan [13, 4-5 b.].

2020-yilning dastlabki choragidan ayrim tuman va shaharlarda hokimlik lavozimiga xotin-qizlarning tayinlangani ham jamiyat hayotida xotin-qizlarga nisbatan munosabatning ijobiy tomonga o'zgarayotganligi, ishonchning ortayotganligi va mamlakatda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan islohotlarning amaliy natijasidir. Ammo bu yetarli emas, hali respublikada gender tenglikni ta'minlash borasida qilinishi kerak bo'lgan ko'plab muhim vazifalar, yechimini kutayotgan muammolar ko'p.

**4. Xulosa.** Mamlakatda olib borilayotgan izchil islohotlarni tahlilidan kelib chiqib aytish mumkinki, nafaqat O'zbekistonda, balki xalqaro hamjamiyatda ham gender tenglik va feminizm masalalari tobora dolzarblashib bormoqda. Ayrim Sharq mamlakatlari singari O'zbekistonda ham xotin-qizlar imkoniyatiga ishonchsizlik bildirish, oilada ikkinchi darajali inson sifatida qarash tabiiy hisoblanadi.

Birgina misol keltiramiz: uzoq yillar davomida respublikamizda siyosiy partiya yetakchiligiga, viloyat hokimligiga yoki O'zbekistonning chet davlatlardagi elchisi lavozimiga ayol kishilarni munosib ko'rilmagan.

Shunday ekan, bu kabi qarashlardan voz kechib Margaret Tetcher, Tansu Chiller, Benazir Bhutto, Indira Gandi, Angela Merkel kabi dunyoga mashhur ayol siyosatchilar faoliyatini o'rganish, ularning erishgan yutuqlarini jamiyat hayotining turli sohalariga tadbiiq etish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Shundan kelib chiqib quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

**Birinchi**dan, jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy, oilaviy va shaxsiy muammolarini o'rganish, bartaraf etishga qaratilgan sotsiologik, ijtimoiy va anonim so'rovnoma hamda ilmiy tadqiqotlar olib borish orqali ularning ijtimoiy mavqeini yuksaltirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish;

**Ikkinchidan**, davlat boshqaruvi sohasida, siyosiy partiyalar yetakchilari, elchilar, tadbirkorlar orasida ayollarning ulushini ko'paytirish maqsadga muvofiq. Buning uchun avvalo respublikaning barcha mintaqalarida, ta'lim muassasalarida xotin-qizlarning siyosiy, huquqiy savodxonligini oshirish masalalariga alohida e'tiborni kuchaytirish lozim;

**Uchinchidan**, respublikaning har bir viloyatida mavjud xotin-qizlar tashkilotlari, siyosiy partiyalar va ularning hududiy bo'limlari, O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi, O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi hamda hududiy bo'limlari tomonidan ijtimoiy-siyosiy jihatdan faol, yetarli bilim va tajribaga ega, tashabbuskor xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlab, ularning nomzodini turli rahbarlik lavozimlariga ilgari surish, davlat boshqaruvi sohasining turli bo'g'inlarida xotin-qizlar faoliyat yuritishiga ko'maklashish O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlashga oid demokratik islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshishiga xizmat qiladi.

### Iqtiboslar/ Сноски/ References:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-y., 6-son, 135-modda. (Bulletin of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, 1995, No. 6, Article 135) // <https://www.lex.uz/docs/2678973> (10.04.2020)
2. Ijtimoiy fikr – inson huquqlari, 2016. № 4. – B. 77-78. (Social Thought – Human Rights, 2016. No. 4. – P. 77-78.)
3. Abdimominov O. O'zbekiston Respublikasining Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan munosabatlari tarixi. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi. Toshkent: 2018. – B. 91-93. (Abdimominov O. History of relations of the Republic of Uzbekistan with the United Nations. Dissertation prepared for the degree of Doctor of Philosophy in Historical Sciences. Tashkent: 2018. – P. 91-93.)
4. Urazalieva G. Ayol – siyosat subyekti. Falsafa huquq jurnali. 2005 yil, 1-son, 47-bet. (Urazalieva G. Woman – a political subject. Journal of Philosophy and Law. 2005, issue 1, page 47.)
5. Quvvatov N. O'zbekistonda o'tish davri va jamiyat taraqqiyoti. T., 2003. – B.56. (Quvvatov N. Transition period and social development in Uzbekistan. T., 2003. – P.56.)
6. Ahrorova S. O'zbekistonda ayollar ijtimoiy faolligini oshirish omillari. Fal. fan. nomz. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi. Toshkent: 2005. – B. 21. (Ahrorova S. Factors for increasing women's social activity in Uzbekistan. Dissertation prepared for the degree of candidate of sciences. Tashkent: 2005. – P. 21.)
7. [https://uz.fundamental-economic.uz/?page\\_id=1454](https://uz.fundamental-economic.uz/?page_id=1454) (2018 yil 7 mart)
8. <https://human.uz/news/3/170/> (10.04.2020)
9. <https://www.uz24.uz/politics/prezident-senatda-hotin-uizlar-va-gender-tenglik-masalalari-bgyicha-ugmita-tuzishni-taklif-uildi> (24.06.2019)
10. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T., "O'zbekiston", 2019. – B. 343-345. (Mirziyoyev Sh. We will continue our path of national development with determination and take it to a new stage. T., "Uzbekistan", 2019. – P. 343-345.)
11. <http://elections.uz/uz/lists/view/2246> (27.02.2020)
12. O'zbekistonda xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlari nomli xalqaro forum materiallari. Samarqand, 2024-yil 13-14 may. – B. 4. (Materials of the International Forum on Women's Rights and Opportunities in Uzbekistan. Samarkand, May 13-14, 2024. – P. 4.)
13. O'zbekistonda xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlari nomli xalqaro forum materiallari. Samarqand, 2024-yil 13-14 may. – B. 4-5. (Materials of the International Forum on Women's Rights and Opportunities in Uzbekistan. Samarkand, May 13-14, 2024. – P. 4-5.)

# ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
LOOK TO THE PAST

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000